



## **SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI**

**2022- yil yanvar- aprel oyi**




**JISMONIY VA  
YURIDIK  
SHAXSLARNING  
MUROJAATLARI**

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasiga 2022- yilning yanvar- aprel oylarida jismoniy va yuridik shaxslardan 46 ta (*o'tgan yilning shu davrida 62 ta*) murojaatlar kelib tushgan.

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning 26.1 foizi (*12 ta*) jismoniy shaxslar va 73.9 foizi (*34 ta*) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Murojaatlarning asosiy qismi – Angor, Boysun, Jarqo'rg'on, Qiziriq, Qumqo'rg'on, Muzrabod, Termiz.t, Sherabod, Sho'rchi tumanlari Termiz.sh hamda Toshkent viloyatidan kelib tushgan.



■ Jismoniy shaxslar    ■ Yuridik shaxslar

**To‘g‘ridan-to‘g‘ri  
kelib tushgan  
yozma murojaatlar**

**25**

**54.3 %**

**Boshqarma  
rahbariyatining  
shaxsiy va sayyor  
qabullaridagi og‘zaki  
murojaatlar**

**16**

**34.8 %**

**Boshqarmaning  
ishonch telefoni  
orqali og‘zaki  
murojaatlar**

**5**

**10.9 %**

**Viloyati statistika boshqarmasiga 2022- yilning yanvar-aprel oylari holatiga ko‘ra, jismoniy va yuridik shaxslardan 46 ta murojaatlar kelib tushgan. Ulardan, 25 tasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 16 tasi boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og‘zaki murojaatlar hamda 5 tasi Boshqarmaning ishonch telefoni orqali kelib tushgan murojaatlarini tashkil etgan.**


## Murojaatlar: mazmun-mohiyati bo'yicha

8 tasi (17.4 %) Nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish xaqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish





19 tasi (41.4 %) Statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish so'ralgan

5 tasi (10.9 %) Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlarni taqdim etish vuzasidan arizalar





3 tasi (6.5 %) Inflyatsiya darajasi to'g'risida so'ralgan murojaatlar

2 tasi (4.3 %) Faolit turini o'zgartirishni so'rab berilgan arizalar





1 ta (2.2 %) Hisobotni qayta topshirish bo'yicha so'ralgan murojaatlar

1 ta (2.2 %) KTYaDR ma'lumotlari so'rab berilgan arizalar



2 ta (4.3 %) Boshqa masalalarda kelib tushgan murojaatlar


3 ta (6.5 %) Qurilish pudrat tashkilotlari elektron reytingiga kirish bo'yicha so'ralgan murojaatlar



2 ta (4.3 %) e.Stat dasturining faoliyati yzasidan so'ralgan murojaatlar



## Murojaatlar: Hududlar bo'yicha tahlili




- |                      |                  |            |               |
|----------------------|------------------|------------|---------------|
| ■ Angor              | ■ Boysun         | ■ Denov    | ■ Jarqo'rg'on |
| ■ Qumqo'rg'on        | ■ Qiziriq        | ■ Muzrabot | ■ Termiz.t    |
| ■ Uzun               | ■ Sherabod       | ■ Sho'rchi | ■ Termiz. Sh  |
| ■ Boshqa hududlardan | ■ MDX davlatlari |            |               |

## Murojaatlar: Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili

T/r	Hudud nomlari	2022- yilda yanvar-aprel oylarida kelib tushgan murojaatlar soni	2021- yilda yanvar-aprel oylarida kelib tushgan murojaatlar soni
1	Angor	2	4
2	Bandixon	-	2
3	Boysun	10	3
4	Denov	1	9
5	Jarqo'rg'on	3	2
6	Qumqo'rg'on	5	-
7	Qiziriq	3	1
8	Sariosiyo	-	9
9	Oltinsoy	-	0
10	Muzrabot	3	0
11	Termiz	3	4
12	Uzun	1	8
13	Sherobod	3	1
14	Sho'rchi	3	0
15	Termiz shahri	6	18
16	Boshqa hududlardan	3	1

## Murojaatlarni ko'rib chiqish holati



■ Ijobiy hal etildi    ■ Tushuntirildi



### Eslatib o'tamiz:

- O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagilar orqali murojaat etishingiz mumkin:

Ishonch  
telefoni:

- Boshqarma
- (76) 225-65-73, 225-65-70

Ishonch  
telefoni:

- Davlat statistika qo'mitasi
- (71) 202-81-80

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi faoliyatini yanada takomillashtirish, jismoniy va yuridik shaxslar uchun davlat organlariga murojaat qilishda qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, 2018- yil 1- fevraldan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi axborot tizimining yangi talqini ishga tushirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasining axborot tizimi jismoniy va yuridik shaxslarga o'z murojaatlarini Internet tarmog'idan pm.gov.uz manzilidagi veb-sayti orqali davlat organlari rahbarlariga yuborish imkoniyatini beradi. Siz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasi axborot tizimining 2- bo'limidagi Davlat qo'mitalari ro'yxatidan Davlat statistika qo'mitasini tanlab, o'z murojaatingizni yuborishingiz mumkin.

Viloyat statistika boshqarmasi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi: D. Xurramova (76) 225-65-73